

MILLIY MATBUOTNING TIL TARAQQIYOTIDAGI O'RNI VA "SAMARQAND" GAZETASI

Ziyatov abduxoshim abduvali o'g'li

SamDU Kattaqo'rg'on filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

Gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Davlat va jamiyat hayotida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa sohalarda ma'lum o'zgarishlar ro'y berar ekan, bu o'z navbatida, tilning boyishiga, taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu, eng avvalo, matbuot va ommaviy axborot vositalarida, bugungi globallashuv davrida, shubhasiz, internet tarmoqlarida aks etadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari, o'zgarishlarning matbuot tiliga ta'siri, o'zlashmalar haqida "Samarqand" gazetasi misolida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: matbuot, taraqqiyot, o'zlashmalar, termin, media, gazeta

Ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotining oynasi va eng muhim axborot yetkazuvchi vositasi hisoblanadi. OAVning barcha turlari jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos funksiyani bajaradi. Mustaqillik o'zbek matbuotida ham son, ham sifat o'zgarishlari qilishga, yangicha taraqqiyot omillarini belgilashga imkon berdi. Xolis, haqqoniy, tezkor, mazmunli axborot yetkazib berish manbai sifatida matbuotning o'rni va roli istiqlol yillarda yanada mustahkamlandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasida so'zlagan nutqida g'oyat aniq va lo'nda ta'rif berilganidek, "Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz".

O'tgan olti-yetti yil O'zbekiston hayotida tub burilishlar yili bo'ldi. Mamlakatimizni 2017 — 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rirlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asoslangan yetta ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hayotga tatbiq etilmoqda.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi asosida barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rinnegallashi, boshqa sohalar qatori ommaviy axborot vositalari rivoji, media-tuzilmalarda faoliyat yuritayotgan jurnalistlarning bilim va malakasi, o'z ishiga mas'uliyati va fidoyiligiga ham bog'liq, albatta.

Yildan-yilga ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish kuchaymoqda. Bu davlat va nodavlat OAV tarkibida nodavlat tarmoqlari ko'payib borayotganida ham namoyon bo'immoqda. Hozirda 1500 dan ziyod OAV faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, barcha telekanallarning qariyb 63 foizi, radiokanallarning esa 85 foizi, gazeta va jurnallarning 60 foizidan ziyodi nodavlat ommaviy axborot vositalaridan iborat. Eng tezkor axborot vositasi - Internet hayotimizga tobora chuqur kirib borayotir. Hozirgi vaqtda global tarmoqda - Uzdomenli veb-saytlar, axborot portallarisoni 500 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda faoliyat ko'rsatayotgani, ushbu yo'nalishda yangi ijodiy avlod - Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga molikdir. Ayni paytda matbuot tili leksikasini o'rganishga bo'lgan qiziqish ancha kuchaydi. Har bir xalqning eng asosiy ma'nnaviy boyliklaridan biri uning tilidir. Tilning asosiy materiali so'zdir. Tildagi barcha so'zlar lug'at tarkibini tashkil etib, ushbu so'zlar matbuot tili leksikasi orqali xalqqa tarqaladi. Xususan, gazeta tilini atroflicha o'rganish, adabiy til xususiyatlarini tadqiq etish bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun gazeta tili leksikasi muammolarini o'rganishning ahamiyati nihoyatda katta. Matbuot materiallari yozma manba sifatida o'zbek adabiy tili rivojini o'rganish va baholash, adabiy til imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning boyligini namoyish qilish, tildan targ'ibot, tashviqot vositasi sifatida foydalanish, savodxonlikni oshirish singari jabhalarda muhim ahamiyatga ega. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, milliy tildan faol foydalanishda obyektiv imkoniyatlar tug'ilishi gazeta tilida ixchamlik, ravonlik, haqqoniylig xususiyatlarining shakllanishiga sabab bo'ldi. Matbuot leksikasining ravnaqi ijtimoiy-adabiy

fakt sifatida gazeta tilining lingvistik va ekstralinguistik omillari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek adabiy tilining publitsistik uslubi matbuot tili rivojida muhim o'rinni tutadi. Mazkur uslub orqali omma bilan doimiy muloqot olib boriladi va u ommaga tezkor axborot berish funksiyasini bajaradi. Ijtimoiy-siyosiy leksikadan faol foydalanish, so'zlashuv uslubiga intilish publitsistikaga xos xususiyatdir. OAVning oldida turgan vazifalarni amalga oshirish, ularning tili va uslubi ham muhim ahamiyatga ega. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, istiqlol davri matbuot tili o'ziga xos ijobiy xususiyatlariga ega. Shunga qaramasdan, atamalardan foydalanishda ayrim kamchiliklar ham uchraydi. So'nggi yillarda o'zbek tilida, jumladan, istiqlol davri gazeta tilida nolisoniy ta'sirlar natijasida jiddiy va sezilarli o'zgarishlar yuz berdiki, bu jarayonni ilmiy o'rganish ehtiyojini vujudga keltirdi. Bu o'zgarishlami ilmiy jihatdan tadqiq etish sohasida anchagina tadqiqotlar yaratilgan. Matbuot tilini o'rganish adabiy tilning lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham matbuot tilining muammolari nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. OAV tilini o'rganish yana shunisi bilan ahamiyatlikni, matbuot axborot, targ'ibot va tashviqot vositasi bo'lishi bilan birga milliy ma naviyatimizda ham beqiyos rol o'ynaydi. Nutq madaniyatini rivojlantirish va savodxonlikni oshirishdagi vazifasi nuqtai nazaridan ham ahamiyati nihoyatda kattadir. Matbuot tilining adabiy normaga mos bo'lislashi ta'minlash jamiyatda fuqarolarning savodlilik darajasini oshirishda muhim rol o'ynashini hisobga olgan holda, lisoniy tadqiqotlar olib borish talablarini kengaytiradi.

Bugun Samarcand viloyatida 1 ta viloyat televiedenesi (STR), 1 ta radio, 1 ta nodavlat teleradiokanalı (STV), 3 ta viloyat, 16 ta shahar va tuman, 10 ta tarmoq, 20 dan ziyod xususiy gazetalar, 6 ta jurnal bor. Ularda bugungi kunda 500 nafardan ortiq ijodiy va texnik xodimlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Barchasining ijtimoiy tarmoqlarda sahifasi va saytlari mavjud. Samarcand viloyat "Zarafshon" va "Samarkandskiy vestnik", "Samarcand" gazetalarining veb-saytida onlayn tarzda ma'lumotlar yoritilmoqda.

Shuningdek, O'za.uz Nuz.uz, Daryo.uz, Xabar.uz veb-saytlarining viloyatdagi muxbirlari bor. Samarcand shahrida Kun.uz saytining hududiy muxbirlik punkti faoliyat ko'rsatmoqda.

"So'z erkinligi" tushunchasi deyarli amalda unutilayozgan bir paytda qarash va g'oyalarning o'zgarishi, jamiyatda ro'y bergan tub burilishlar, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tufayli erkin va xolis axborot tarqatish imkoniyati paydo bo'ldi. Bugungi kun jurnalisti tamoman yangicha yondashuv va har qanday tazyiqlardan holi holatda faoliyat ko'rsatmoqda. Gazetalarda "Jurnalist surishtiruvi", "Tanqidning to'qmog'i", "Kim qiladiya shugunaniya?" kabi bir qator tanqidiy tahliliy maqolalarni yoritishga bag'ishlangan maqolalar e'lon qilina boshlandi. Feleton janri matbuot yuzini ko'ra boshladi.

"Samarcand" gazetasini 2010-yilgacha oq-qora rangda, 4 sahifada chop etilgan gazeta 2010-yilda 8 sahifada rangli chop etila boshladi. Gazeta 2012-yildan boshlab A-2 o'Ichamda haftasiga bir marta, 1 bosma toboq hajmida, rangli tasvirda, 2015-yildan 2018-yil oxirigacha haftasiga ikki marta xuddi shu formatda chop etildi.

Gazetaning veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalari ishlab turibdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, gazeta respublikada uch tilda – o'zbek, tojik va rus tillarida chop etilayotgan sanoqli gazetalardan biri. Ayni paytga kelib jamoada 12 nafar xodim, jumladan 5 nafar ijodiy xodim faoliyat yuritmoqda. Eng muhim, gazeta keyingi yillarda nafaqat Samarkand viloyatida balki mamlakatimiz shahar va tuman gazetalari orasida o'zining sifati, mazmun-mohiyati va o'qishligi bilan o'z o'rniiga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2022-yil.
- 2.Sh.M.Mirziyoyev. Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari. – T.: “O'zbekiston”, 2020-yil.
- 3.Bobotoyev A. Gazeta tili haqida. – Toshkent: Fan, 2000.
- 4.Абдусаидов А. Язык газеты и литературная норма: автореф. Дис...канд. филол наук. – Ташкент, 1988
- 5.Lex.uz
- 6.Samarkandnews.uz